PEDAGOGIK MAHORAT VA UNING TA’LIM TARBIYADA TUTGAN O’RNI.

Педагогические навыки и их место в систем образования.

Pedagogical skills and its place in the educational system.

Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o’qituvchisi
Turdiyeva ShoxidaxonAnvardjanovna Andijon davlat pedagogika instituti, Kimyo yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

Uktamova Muhabbat Ozodbek qizi .

Anotatsiya: Mazkur mavzuda pedagogik mahoratning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Unda pedagogik mahoratning mohiyati, bo‘lajak o‘qituvchi va tarbiyachilarni kasbiy jihatdan tayyorlashdagi vazifalari hamda zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, pedagogik mahorat kursining maqsad va vazifalari, pedagogik qobiliyat, pedagogik muloqot, pedagogik texnologiyalar va ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish masalalari tahlil qilingan. Mavzuda pedagogning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish orqali barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati keng yoritib berilgan.

Kalit so‘z va iboralar: Pedagogik mahorat, ta’lim-tarbiya, pedagogik faoliyat, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnologiya, pedagogik muloqot, pedagogik nazokat, pedagogik takt, kasbiy bilim, ko‘nikma va malaka, tarbiyachi, o‘qituvchi, barkamol avlod, innovatsion texnologiyalar, pedagogik tajriba, pedagogik texnika, nutq

madaniyati, ijodiy qobiliyat, o‘quvchi shaxsi, pedagogik ta’sir, o‘z-o‘zini boshqarish, hamkorlik pedagogikasi, ta’lim tizimi, kasbiy tayyorgarlik, zamonaviy pedagogika

Аннотация: Данная тема освещает роль и значение педагогических навыков в образовательном процессе. Рассматривается сущность педагогических навыков, их задачи в профессиональной подготовке будущих учителей и педагогов, а также их роль в современной системе образования. Анализируются цели и задачи курса педагогических навыков, изучение педагогических навыков, педагогическая коммуникация, педагогические технологии и передовой педагогический опыт. В целом, тема подчеркивает важность роли учителя в воспитании всесторонне развитого поколения посредством развития профессиональных знаний, навыков и квалификации.

Ключевые слова и выражения: Педагогик махорат, та’лим-тарбия, педагогик фаолият, педагогик кобилият, педагогика технология, педагогик мулкот, педагогик назокат, педагогик такт, касбий билим, ко’никма ва малака, тарбиячи, о’китувчи, баркамол авлод, инновационная технологиялар, педагогика таджриба, педагогика техника, нутк маданияти, иджоди кобилият, о’кувчи шакси, педагогика та’сир, оз-о’зини бошкариш, хамкорлик педагогикаси, та’лим тизими, касбий тайёргарлик, zamonaviy pedagogika.

Annotation: This topic highlights the role and importance of pedagogical skills in the educational process. It discusses the essence of pedagogical skills, their tasks in the professional training of future teachers and educators, and their role in the modern education system. It also analyzes the goals and objectives of the pedagogical skills course, the study of pedagogical skills, pedagogical communication, pedagogical technologies, and advanced pedagogical experiences. The topic broadly highlights the importance of the teacher in raising a well-rounded generation through the development of professional knowledge, skills, and qualifications.

Keywords and phrases: Pedagogical skills, education, pedagogical activity, pedagogical ability, pedagogical technology, pedagogical communication, pedagogical tact, pedagogical tact, professional knowledge, skills and qualifications, educator, teacher, harmonious generation, innovative technologies, pedagogical experience, pedagogical techniques, speech culture, creative abilities, student personality, pedagogical influence, self-management, cooperative pedagogy, educational system, professional training, modern pedagogy.

Kirish: Hozirgi globallashuv va axborot texnologiyalari tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimiga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda. Jamiyat taraqqiyoti, davlatning iqtisodiy va ma’naviy yuksalishi, avvalo, yosh avlodning bilimli, ma’rifatli va barkamol inson bo‘lib voyaga yetishiga bog‘liqdir. Bunday mas’uliyatli vazifani amalga oshirish esa pedagoglarning kasbiy mahorati, bilim darajasi va pedagogik salohiyatiga bevosita aloqadordir. Shu sababli pedagogik mahorat masalasi bugungi kunda pedagogika fanining eng muhim va dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Pedagogik mahorat — bu o‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishi, o‘quvchilar qalbiga yo‘l topa olishi, ularning bilim va tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi bilan belgilanadigan murakkab kasbiy sifatlar majmuasidir. Pedagog nafaqat chuqur bilimga ega bo‘lishi, balki o‘sha bilimni o‘quvchilarga sodda, tushunarli va qiziqarli tarzda yetkazib bera olishi ham zarur. Chunki har bir o‘quvchining qiziqishi, dunyoqarashi, xarakteri va qobiliyati turlicha bo‘ladi. Pedagogik mahorat esa ana shu individual xususiyatlarni hisobga olgan holda ta’lim va tarbiyani tashkil etishni talab qiladi.

Yangi insonni shakllantirish masalasining ko‘p qirrali va murakkabligi pedagogik mahorat muammosining hozirgi zamon tarbiya nazariyasi va praktikasi uchun muhimligini ko‘rsatib beradi. Chunki hamma vaqt insonni har

tomonlama mukammal tarbiyalash, uning kelajagini belgilash borasida tarbiyachi pedagog mahorati, uning yetukligi, chuqur kasbiy bilimi, ko‘nikma va malakasi, maxsus bilim va tajribasisiz erishib bo‘lmaydi. Zero, pedagogik mahorat barcha o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning eng qulay yo‘llarini belgilaydi, hamda har bir pedagogdan o‘quvchi shaxsning barcha tomonlarini rivojlantirish va takomillashtirishga doir kasbiy bilim, tajribaga ega bo‘lishni talab etadi. Hozirgi pedagogik ta’lim yo‘nalishi bo‘lajak pedagog mutaxassislarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun yetarli sharoitlarni belgilab berishi kerakki, natijada o‘sha mutaxassisni chuqur ilmiy bilim kasbiy-pedagogik Huddi shu maqsadda Respublikamizning barcha oliy o‘quv yurtlarining o‘quv rejasiga ko‘ra “Pedagogik mahorat” kursi kiritildi va o‘qitila boshladi. Albatta bunga qadar ushbu muammo bo‘yicha shug‘ullangan Rossiyalik taniqli pedagoglardan V.A. Slastenin, A.I. Piskunov, A.P. Petrovskiy, V.K. Rozov, L.F. Spirin va boshqalarning ishlarini aytib o‘tish o‘rinli. Ularning tadqiqot ishlarida pedagogik mahoratni shakllantirish yo‘llari haqida fikr yuritiladi. Umuman olganda, psixologik - pedagogik fanlar tizimida va amaliyotda juda katta tajriba, bilimlar manbai, tavsiyalar to‘plangan bo‘lib, bular o‘qituvchilarga, bo‘lg‘usi pedagoglarga ma’lum tizim holida yetib borishi, ular ijodiy imkoniyatlari rivojiga ta’sir etishi zarur. Lekin mavjud pedagogik- psixologik va metodika bo‘yicha darsliklarda pedagogik mahorat masalasiga kam e’tibor berilgan. Bu esa ana shunday bilimlarni - tizimlashtirilgan va ayniqsa, oliy ma’lumotli pedagoglarni tayyorlash uchun zarur bo‘lgan qo‘llanmalar yaratish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ana shunday yaxlit tarzda yaratilgan I.A.Zyazyun rahbarligida Moskvada, 1989 yilda nashr etilgan «Основы педагогического мастерства» nomli o‘quv qo‘llanmasi mavjud xolos. Hozirgi zamon uzluksiz talim tizimida bo‘lajak mutaxassislarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish, chuqur ilmiy, kasbiy pedagogik tayyorgarlikka erishishga imkon yaratilishini nazarda tutadi. Psixologik - pedagogik fanlar tizimida bu masalaga ma’lum darajada e’tibor berilgan

bo‘lsada, lekin respublikamizda hozirga qadar yaxlit bir tizim tarzida o‘rganilib, talabalarning o‘rganishlari uchun qo‘llanma, darslik ishlab chiqilmagan edi. «Pedagogik mahorat» kursi esa ta’lim va tarbiyaviy ishlarning asosiy malakalarini hosil qilishga: pedagogik muomala, nutq pedagogikasi, pedagogik o‘zaro ta’sir ko‘rsatish, pedagog - psixik holatini mustaqil tartibga solib turish, pedagogik ta’sir ko‘rsatish dramaturgiyasi va rejissurasi, fikrlash madaniyati, o‘quvchilar bilan muomala madaniyati, xulqini, o‘z-o‘zini boshqarish madaniyati, turli pedagogik treninglar va ularning elementlarini shakllantirish masalalariga qaratilgan. Pedagogik mahorat kursining asosiy maqsadi – O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari asosida bo‘lajak tarbiyachi va o‘qituvchilarni ta’lim tarbiya tizimiga ham nazariy, ham amaliy jihatdan tayyorlash ishiga yaqin yordam berishdan ibrat.

Asosiy vazifalari esa: talabalarga pedagogik mahoratning nazariy asoslaridan tegishli bilim, tushunchalar berish, ularda pedagogik jarayonning umum pedagogik-didaktik shart sharoitlari, uni boshыara olishga doir ko‘nikma, malakalarni tarkib

Toptirish, ularni ilg‘or pedagogik texnologiyalar va ularni amlaiyotga tadbiq etishning yo‘l, usullari bilan qurollantirish, ularda tarbiyalanuvchi, o‘quvchilar bilan muloqotga kirisha olish layoqatlarini rivojlantirish asosida ularga pedagogik ta’sir ko‘rsatishning faol yo‘l, usul, shakllari bo‘yicha amaliy ko‘nikma, malakalarini shakllantirish, bo‘lajak mutaxassislarda ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish, tahlil qilish, umumlashtirish va ularni o‘z faoliyatida qo‘llay olishga o‘rgatish. Mazkur kursni o‘rganish asosida talabalar DTS talabiga binoan quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishadilar: pedagogik faoliyat va uning xususiyatlari, pedagogik qobiliyat, uning yo‘nalishlari, ularning shakllanish jarayoni, ta’lim-tarbiya jarayonidagi pedagogik mahorat va uning maqsadi, xamkorlik pedagogikasining shakllari va ijtimoiy munosabatlar doirasiga kirisha olishlik pedagogik nazokat, takt, texnika va texnologiyalarni amaliyotga tadbiq etish. Umuman olganda, bo‘lg‘usi mutaxassis

pedagogik mahorat qirralarini mukammal bilishi, bu borada yetakchi mohir o‘qituvchilar pedagogik ish tajribalarini o‘rganishlari zarur. Quyida o‘qituvchi pedagogik tajribasini o‘rganish sxemasi keltiriladi.

I. Maqsadni o‘rganish vazifalarini shakllantirish: dolzarb mavzularini aniqlash.

II.Pedagogik fanlar va ta’lim amaliyoti bilan bog‘liq masalalarni hal etishda mohir o‘qituvchilar erishgan natijalarni aniqlash.

III.Ilg‘or pedagogik tajriba to‘g‘risida faktik materiallarni to‘plash:

1. Bevosita:

a) o‘quv - tarbiya jarayonini kuzatish asosida;

b) mohir o‘qituvchi va ta’lim muassasasi rahbari bilan suhbat asosida;

d) maktab hujjatlarini o‘rganish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

2. Bevosita:

a) pedagogik adabiyotlarni o‘rganish;

b) mohir o‘qituvchilar ish tajribalari to‘g‘risidagi qo‘lyozma (doklad, uslubiy hujjatlar) materiallarni o‘rganish orqali;

d) o‘qituvchiga sirtqi uslubiy topshiriqlar (anketa, xat bilan murojaatlar) berish va javoblarini o‘rganish asosida;

e) tahlil, umumlashtirish, xulosa; o‘rganilgan tajribaning o‘ziga xos tomonlari; uning pedagogik tavsifi asoslanishi zarur.

Xulosa: Pedagogik mahorat bugungi zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Chunki yosh avlodni har tomonlama barkamol, bilimli, mustaqil fikrlaydigan va ma’naviy yetuk inson qilib tarbiyalash bevosita o‘qituvchining kasbiy mahorati, bilim saviyasi hamda pedagogik tajribasiga bog‘liqdir. Pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, yo‘lboshchi va shaxs kamolotiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim shaxsdir. Shu sababli pedagogik mahoratni shakllantirish masalasi doimo dolzarb ahamiyat kasb etadi.“Pedagogik mahorat” kursining joriy etilishi bo‘lajak o‘qituvchi va tarbiyachilarni nazariy hamda amaliy jihatdan

mukammal tayyorlashga xizmat qiladi. Mazkur kurs orqali talabalarda pedagogik muloqot, nutq madaniyati, pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, o‘quvchilar bilan samarali munosabat o‘rnatish kabi muhim ko‘nikma va malakalar shakllanadi. Ayniqsa, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va ularni amaliyotda qo‘llay olish bo‘lajak mutaxassisning kasbiy rivojlanishida katta o‘rin tutadi.Shuningdek, pedagogik mahorat o‘qituvchidan doimiy izlanish, ijodkorlik va o‘z ustida ishlashni talab etadi. Zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo‘llay oladigan, o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini chuqur tushunadigan va ularga individual yondasha oladigan pedagoglargina yuqori natijalarga erisha oladi.Xulosa qilib aytganda, pedagogik mahorat — bu o‘qituvchining kasbiy muvaffaqiyati, ta’lim sifati va yosh avlod tarbiyasining muhim omilidir. Shu bois bo‘lajak pedagoglar pedagogik mahorat sirlarini chuqur o‘rganib, uni amaliy faoliyatda samarali qo‘llashlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. – Toshkent,1997.
2. I.A. Zyazyun. Основы педагогического мастерства. – Moskva, 1989.
3. V.A. Slastenin. Pedagogika. – Moskva: Shkola-Press.
4. A.I. Piskunov. Pedagogik mahorat asoslari. – Moskva.
5. A.P. Petrovskiy. Pedagogik psixologiya. – Moskva.
6. L.F. Spirin. Pedagogik faoliyat va mahorat. – Moskva.